

O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING SIYOSIY VA IJTIMOIIY FAOLLIGI TARIXIDAN

Primqulova Dinora Sayfiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘rni, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ayollar faolligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy qonunchilik asoslari va statistik ma’lumotlar tahlili orqali xotin-qizlarning jamiyatdagi tutgan o‘rni va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar ilmiy nuqtai nazardan o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: O‘rta asrlar ayollari, davlat boshqaruvida ayollar, tarixiy ayol arboblari, genderlik yondashuv, ayollar harakati tarixi, ayollar merosi, ijtimoiy evolyutsiya, tarixiy tajriba, ayollar va siyosat, ayol obrazlari tarixda.

Tarixning har bir davrida ayollar siymosi va ular bilan bog‘liq jarayonlar qiziqarli va ahamiyatli bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan Vatanimiz tarixidagi so‘nggi ikki asrlik vaqt davomida ayollarning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni turlicha bosqichda o‘tgan. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida xotin-qizlar masalasiga to‘xtalar ekan, shunday fikrlarni bildiradilar: “Onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy- siyosiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz deb bilamiz”. Bu fikrlar xotin-qizlar nufuzini, mavqeini har tomonlama tiklash dolzarb ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bundan qariyb bir asr muqaddam Turkiston o‘lkasida taraqqiyparvar jadidlar jamiyat hayotida ko‘plab masalalar singari xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini ko‘tarish, ularning ta’lim olishi, huquqlari, umuman jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan qarash va munosabatni o‘zgartirish, avvalo ularni bilimli qilib tarbiyalash masalasida oldingi qatorda turib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo‘ldilar.

Demak, hozirgi davrda xotin- qizlarning jamiyat hayotida o'zni masalasi qanday muhim ahamiyat kasb etsa, XIX asr oxiri – XX asr boshida ham o'z dolzarbligi bilan ajralib turgan. Mazkur vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, jadidlarimiz qarashlarini ilmiy muomalaga kiritish bugungi kunda ham dolzarb vazifalardandir. 1999-yil 14-apreldagi 760-I-sonli “Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risidagi” O'zbekiston Respublikasi Qonuni¹, 2003-yil 29-avgust “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi” Qonunning 22-moddasi, shuningdek, 1995-yil 2-mart PF-1084-sonli “O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlar rolini oshirish choralari to'g'risida” Prezident Farmoni, 2010-yil 30-sentabrdagi PF- 4245-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” hamda 2004-yil 25-may PF-3434-sonli “O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” farmonlarida xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlamidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar mustaqilligimizning ilk yillaridanoq o'z samarasini ko'rsatdi[4].

Bu islohotlar so'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, oilani mustahkamlash borasida bir qator muhim qarorlar: 2018-yil 2-fevral PF- 5325-son “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2004-yil 25-may PF-3434-sonli “O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi bilan diqqatga sazovordir[5].

Yurtimizda olib borilayotgan bu kabi islohotlar xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilani mustahkamlash, ayniqsa, nikohning barqaror bo'lishi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida ota-onaning huquq va majburiyatlari nafaqat O'zbekiston Respublikasi balki, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari siyosatining o'ziga xos jihati sifatida qaraladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshida o'lkadagi ma'naviy hayotga nazar tashlaydigan bo'lsak, XIX asr oxiri – XX asr boshida ommalashgan otinchilik qizlar uchun boshlang'ich

ta'lim vazifasini ado etdi, ularga bibixalifa yoki bibiotinlar dars berganlar. Maktab yillarida qizlar o'z bibiotinlari boshchiligida asosan, "Haftiyak"ni Qur'onning 2-3 ta surasini o'qib o'rganganlar. Qur'onning boshqa suralarini esa uylarida o'rgatishgan. "Qizlar uchun ilm mutlaqo ortiqcha, qizlarni tikish, bichish va to'qishga o'rgatishlar, o'qish va yozishni chetga surib qo'yinger", - degan jamoatchilik fikrining mavjudligi adabiyotlarda keltiriladi[1]. Kamdan kam qizlar o'qishga o'rgatiladi, undan ham kam hodisalarda yozishga, qizlarning ko'pchiligi asosan kunduzgi ibodat, namoz o'qish bilan band edi.

Turkistondagi maktablarda qizlar ko'prok fors va turk she'riyatini o'rganib, yozuvga kam e'tibor berganlar. Maktablarni tugatishlari bilan qizlarning o'qishiga yakun yasalgan. Ba'zi joylarda qizlar maktabi bo'lsa-da, ota-onalar bir yildan keyinroq qizlarining o'qishini to'xtatib qo'yar, odatda ularni juda yosh turmushga berib yuborardilar. Bularning barchasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiston maktab-maorifining o'ziga xos xususiyatlaridan biri edi. Ismoilbek Gasprinskiy 1884 yil "usuli jadid" maktabini ochib, maorif tizimini isloh etish borasida g'oyalarini "Tarjimon" gazetasida e'lon qilib, maorif tizimi oldida hal etish kerak bo'lib turgan vazifalardan biri – qizlar maorifiga ham alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidlagan. Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo'lida ekanligi alohida ta'kidlaganlar. Sadriddin Ayniy bu haqida quyidagi fikrni bildirgan edi: "Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo'lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur"[3]. Bu tarbiyada ayniqsa, bolalar bilan ko'proq shug'ullanadigan ona hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda onaning bola tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarashi fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkinligi jadidlar tomonidan e'tirof etilgan.

Abdurauf Fitrat kelajak avlodlarning ongsiz, irodasiz, tarbiyasiz, nodon va johil bo'lmasliklari uchun xotin-qizlar o'qimishli, sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lishlari kerakligini zarur deb biladi. U tarbiyani juda muhim ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda "Oiladagi mushkulvazifa go'dak tavalludidan so'ng er-xotin bo'yniga tushadigan farzandtarbiyasidir", deb uqtiradi. Umuman olganda, jadidlarning oila masalasidagi qarashlarida Fitratning "Birinchi tarbiya (oilalar tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rinishadi" - degan fikri asos bo'lib xizmat qiladi[2].

O'zbekiston xotin- qizlarining umumiy bilim saviyasi yuqori darajada. Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarining umumiy sonida xotin- qizlarning salmog'i 50 foizdan oshadi. Shuning bilan birga, bozor islohotlari va malakali kadrlarga ehtiyoj ortib borishi sharoitida ishlab chiqarishning texnikaviy takomillashuvi o'sib borishi va yangi tarmoqlar paydo bo'lishini hisobga olgan holda, mehnat bozorida ayollarning moslashuvi vositasi sifatida ularning qaytadan o'qitilishini yaxshilash talab etiladi. 1997-2005-yillarga mo'ljallangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bunga keng imkon berdi[6].

Hozirgi vaqtda respublikamizda 12 milliondan ziyod xotin- qiz istiqomat qiladi. Ular sanoatda ishlovchilarning 48 foizini, qishloq xo'jaligida ishlaydiganlarning 40 foizini, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, fan va madaniyat xodimlarining 60-70 foizini, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohaslarida ishlaydiganlarning deyarli 50 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda parlamentda ayollarning 18 nafar vakili, viloyat, tuman, shahar darajasidagi rahbarlar orasida 300 dan ortiq xotin-qiz bor. Shuningdek, vazir o'rinbosarlari, korxona rahbarlari o'rinbosarlarining 17,5 % ini xotin-qizlar tashkil etadi. Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotganlarning 60 foizi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport, maorif, san'at yo'nalishidagi o'quv yurtlarida o'qiydiganlarning 48,8 foizi xotin- qizlardan iborat. Bugungi kunda xotin- qizlarning jamoat tashkilotlari doirasidagi faolligi sezilarli darajada ortib boryapti. Ularning ko'pchiligi, asosan, Toshkentda va viloyat markazlarida ishlab turibdi. Afsuski, ayollar muammosi ko'p bo'lgan qishloqlarda ularning faoliyati past. Ammo, umuman olib qaraganda, mamlakatda ayollarning nohukumat tashkilotlari soni tobora ko'payib bormoqda. Gender tengligini ta'minlash va xotin qizlarning jamiyatda shaxs sifatidagi o'rnini kuchaytirish borasidagi islohotlarni 3 davrga bo'lishimiz mumkin bular:

Birinchi bosqich 1991-2000-yillar: Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konventsia»ga O'zbekiston 1995-yil 6-maydagi ratifikatsiya qildi va 1995-yil 18-avgustdan kuchga kirdi. Ushbu Konventsia 1979-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan edi. Unda hamma sohalaridagi barcha xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan xotin-qizlar huquqlariga

doir printsiplar xalqaro darajada kelishilgan yuridik imperativ shaklda bayon qilinadi. Konventsioning asosiy huquqiy normasi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini taqiqlovchi norma hisoblanadi[3].

Ikkinchi bosqich XXI asr boshlari: O'zbekistonda gender tengligini mustahkamlash bo'yicha Normativ huquqiy hujjatlar. Ushbu davrda esa hukumat ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarini amalga oshirdi. Siyosiy sohada: Davlat xizmatlari bo'limlari nafaqat tanlov ishtirokchilarining ta'lim va kasbiy tayyorgarligi, balki tegishli davlat xizmati lavozimlarida ishlaydigan xodimlarning gender nisbati haqida ham batafsil ma'lumot berish tizimi joriy etildi[1].

Uchinchi bosqich 2017-hozirgi davrgacha: Yangi O'zbekistonda ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o'rni va roli. So'nggi 10 yil mobaynida xotin qizlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi mavqeyini yaxshilash borasida qator islohotlar o'tkazilib kelinmoqda. Masalan Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun, qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan bo'lib, Senat tomonidan 2019-yil 23-avgustda ma'qullangan. Aytib o'tishimiz kerakki ushbu qonuning 1-bobida ushbu qonunning maqsadi keltirilgan ya'ni bunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda shu qatorda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish deb ta'kidlab o'tib ketilgan[5].

Konstitutsiyamizning 58-moddasiga nazar tashlasak, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar". Ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir[6].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar teng huquqliligining kafolatlari, jamiyat hayotidagi o'rni, davlat boshqaruv sohasidagi faoliyatlari, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o'rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

- jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to'siq bo'lmashligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo'lga qo'yish;
- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag'batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;
- huquqiy ta'limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo'lga qo'yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o'rinlari ustida yangicha yondashuvlarni amalga oshirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi: tarix va zamon muammolari. Toshkent. 2018. 58-61-b.
2. Islomova D. O'zbekiston ayollarining siyosiy ishtirokida yangiliklar va muammolar. Jamiyat va siyosat jurnali. 1(5), Toshkent. 2017. 67-74 b.
3. Sultonova N. Ayollar huquqlari va jamiyatdagi o'rni: O'zbekistondagi tarixiy jarayonlar. Huquqshunoslik jurnali. 4(3). Toshkent. 2012. 112-119-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni. 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Gender tengligi to'g'risidagi Qonuni (30-iyul, 2019-yil).
6. www.Ziyonet.uz internet sayti